



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH UCHUN INNOVATSION METODLAR

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi
kafedrası mudiri i.f.d DSc, dotsent, fan o'qituvchisi
Farruxbek0209@mail.ru; orcid.org/0000-0002-4574-7728

Mahmadullayeva Sevara Madamin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika institute
nuraliyevakmal613@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18252824>

ARTICLE INFO

Received: 13st January 2026
Accepted: 14th January 2026
Published: 15th January 2026

KEYWORDS

Kommunikativ kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, innovatsion metodlar, muloqot, interfaol yondashuv, interaktiv metodlar.

ABSTRACT

Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiya ko'nikmalarini rivojlantirish muammosi yoritib beriladi. Kommunikativ muammo va qiyinchiliklarni bartaraf etish imkonini beruvchi innovatsion pedagogic metodlarning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida visual, interaktiv va o'yin texnologiyalariga asoslangan metodlarning o'quvchilarning muloqot jarayonidagi faolligi va mustaqilligiga ta'siri aniqlanadi. Olingan natijalar, innovatsion yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani samarali shakllantirishini tasdiqlaydi.

Hozirgi davrda ta'lim tizimi o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan holda takomillashib bormoqda. Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning nutqiy va ijtimoiy kompetensiyalari shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu jarayonda o'quvchilar nafaqat til birliklarini o'zlashtiradilar, balki muloqot jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklarga moslashish, o'z fikrini aniq va tushunarli ifodalash qobiliyatlari va ko'nikmalarini ham egallaydilar. Mazkur jarayonda kommunikativ kompetensiya tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ kompetensiya o'quvchining til, lug'at yoki tajriba yetishmovchiligi sharoitida muloqotni to'xtatmasdan davom ettirish qobiliyatini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muloqot faqatgina axborot almashish vositasi bo'lib qolmay, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'qitish usullari barcha o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlarini qamrab olishga yetarli samaradorlik bermaydi. Shu sababli dars jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish dolzarb pedagogic vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – boshlang'ich ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlarning samaradorligini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Kommunikativ kompetensiyaning mazmuni

Kommunikativ kompetensiya o'quvchining turli vaziyatlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- fikrni izchil va tushunarli tarzda bayon etish;
- suhbat jarayonida faol ishtirok etish;
- tinglash va anglash malakasiga ega bo'lish;
- muloqot madaniyatiga rioya qilish.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil va erkin fikrlashini qo'llab-quvvatlaydi va ularning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishda innovatsion metodlar

Interfaol metodlardan foydalanish

Interfaol metodlar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish imkonini beradi. Guruhli topshiriqlar, muhokamalar va savol-javoblar orqali o'quvchilar o'z fikrini ochiq bayon qilishga va boshqalarning fikrini hurmat qilishga o'rganadilar. Bunday yondashuv muloqot ko'nikmalarining tabiiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'yin faoliyatiga asoslangan metodlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin faoliyati yetakchi ahamiyatga ega. Rolli va didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar nutqiy faollikni namoyon etadi, muloqot jarayonida erkin qatnashishga odatlanadi. O'yin asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi. Multimedia materiallari, interaktiv taqdimotlar va audio vositalar o'quvchilarning eshitish hamda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Adabiyotlar tahlili

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda kommunikativ kompetensiya masalasi keng yoritilsa-da, uning tarkibiy qismi sifatida bunday kompetensiyalar alohida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun fikrlash, tayanch va noverbal vositalarning zarurligini ta'kidlaydilar.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatuv – o'quvchilarning muloqot jarayonidagi xatti-harakatlarini aniqlash;
- tajriba-sinov darslari – innovatsion metodlarning samaradorligini tekshirish maqsadida;
- tahlil va umumlashtirish – olingan natijalarni ilmiy xulosalash maqsadida.

Tadqiqot obyekti sifatida 2-4-sinf o'quvchilari tanlandi. Tajriba jarayonida quyidagi innovatsion metodlardan foydalanildi: rolli o'yinlar, visual tayanchli topshiriqlar, aqliy xaritalar, klaster va raqamli interaktiv mashqlar.

Natijalar

Tajriba sinov darslari natilari innovatsion metodlar orqali olib borilgan darslarda kommunikativ faollikning sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. O'quvchilar nutqiy qiyinchiliklarga duch kelganlarida rasm va tasviriy ifodalardan, sinonimlardan foydalanishga harakat qildilar.

Shuningdek, dars jarayoniga qatnashishdan, muloqotda ishtirok etishdan tortinadigan o'quvchilarning soni kamaydi va jamoaviy muhokamalarda faol qatnashish holatlari ko'paydi. O'quvchilarda o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga bo'lgan ishonchi ortgani aniqlandi. Bu esa kommunikativ kompetensiya ko'nikmalarining shakllanganidan dalolat beradi.

Muhokama

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiya faqatgina lingvestik muammo emas, balki pedagogik va psixologik jarayon bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ushbu metodlar o'quvchilarni qo'rqmasdan muloqot qilishga undaydi va ularda fikrlash jarayonini rivojlantiradi. Interfaol rolli o'yinlar, visual metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo'lib, kommunikativ vaziyatlarni tabiiy tarzda modellashtirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar esa ularni zamonaviy muloqot muhitiga tayyorlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich ta'lim bosqichida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Innovatsion metodlar ushbu jarayonni samarali, qiziqarli va tizimli tashkil etish imkonini beradi va ulardan foydalanish o'quvchilarning muloqotga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi, ularni faol va mustaqil fikrlashga undaydi. Shu bois boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng qo'llashlari maqsadga muvofiqdir.. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Mazkur maqola natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishda, shuningdek, kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarni loyihalashtirishda muhim va amaliy ahamiyatga ega.

References:

1. Qodirov, F. "OPTIMIZATION OF TELECOMMUNICATIONS POWER SUPPLY SYSTEMS BASED ON RELIABILITY CRITERIA." Science and innovation 2.A12 (2023): 15-20.
2. F Qodirov. Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanishini iqtisodiy-matematik modellashtirish. Scienceweb academic papers collection . 2023/1/1.
3. F Qodirov. Zamonaviy to'lov tizimlari tahlili va elektron pul birliklari. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1.
4. Farrux Qodirov. Zamonaviy trenajyor va simulyatsiya qiluvchi dasturlarning hozirgi kundagi ahamiyati. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
5. Farrux Qodirov. BUSINESS INNOVATION MODEL OF INCOME AND COSTS FROM THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
6. Farrux Qodirov. ECONOMIC-MATHEMATICAL MODELING OF THE DEVELOPMENT OF THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1

7. Farrux Qodirov. THE PLACE OF ECONOMETRICAL MODELING OF HEALTHCARE QUALITY IMPROVEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
8. Farrux Qodirov. DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Scienceweb academic papers collection. 2023/1/1
9. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "CREATION OF ELECTRONIC MEDICAL BASE WITH THE HELP OF SOFTWARE PACKAGES FOR MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 128-130.
10. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "IMPORTANCE OF KASH-HEALTH WEB PORTAL IN THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN THE REGIONS." Conferencea (2022): 80-83.
11. Qodirov, Farrux. "THE ROLE OF ICT IN THE DEVELOPMENT OF HEALTH SERVICES." RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHDA MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MA'RUZALAR TO'PLAMI (2022).
12. Фаррух Қодиров. Аҳолига хизмат кўрсатиш соҳасининг моделлаштиришни тизимли имитация қилиш. Biznes-Эксперт. Том 173. Номер №5. Страницы 102-106. Дата публикации 2022.
13. Farrux, Qodirov. "Foreign experience in the development of medical services to the population." Хоразм Маъмун академияси (2022).
14. ҚОДИРОВ, Фаррух. "АҲОЛИГА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ." AGRO ILM (2022).
15. Qodirov, Farrux. "VEKTOR VA SKALYAR MAYDONLAR. GRADIYENT VA YO'NALISH BO'YICHA NOSILA. DIVERGENSIYA VA ROTOR. SATH CHIZIQLARI. GRADIYENT MAYDONLAR. OQIMLAR." Analytical Journal of Education and Development (2022).
16. Qodirov, Farrux. "FURYE QATORI FUNKSIYALARNI FURYE QATORIGA YOYISH." МАТЕМАТИК ФИЗИКА ВА МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (2021).
17. Qodirov, Farrux. "MASOFAVIY TA'LIMDA MOODLE. TUITKF. UZ PLATFORMASINING O'RNI VA ANAMIYATI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
18. Qodirov, Farrux. "RASPBERRY PI QURILMASINING TEXNIK XUSUSIYATLARI VA UNING IMKONIYATLARI." ИЖТИМОЙ СОҲАЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ МАЪРУЗАЛАР Тўплами (2020).
19. Qodirov, Farrux. "PROTECTING WEBSITES FROM VARIOUS ATTACKS." АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯЛАР мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТУПЛАМИ (2019).
20. Кодиров, Ф. "PROTSESS RAZRABOTKI IGROVOGO DVIJKA UNITY." Scienceweb academic papers collection (2019).